



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA OKKAZIONAL BIRLIKLAR TADQIQI

A STUDY OF OCCASIONAL UNITS IN RAUF PARFI'S POETRY

Rayimjonova Matluba Maxamadkarimovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: matlubarayimjonova025@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./GFYK3152](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./GFYK3152)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Xalq shoiri Rauf Parfi ijodida uchraydigan okkazional birliklar tarkibiga ko'ra turlari va uning mazkur birliklarni qo'llashdagi individual usullari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Okkazionalizm, uzual ma'no, tub so'z, anagramma, raddi matla, affiksatsiya, qo'shma so'z.*

Annotation: *This article analyzes the types of occasional units found in the work of People's Poet of Uzbekistan Rauf Parfi, as well as his individual methods of using these units.*

Keywords: *Occasionalism, usual meaning, root word, anagram, raddi matla, affixation, compound word.*

She'riyat adabiyotda o'ziga xos janrdir. Unga berilgan ta'riflarda shoir-u yozuvchilar, olim-u tanqidchilarning fikrlari bir-birini taqozo etadi. She'rni tushunish, ma'nosini anglash, undagi kayfiyatni his qilishda she'riyat tili muhim omil hisoblanadi. Zero, “Poeziya tili badiiy adabiyot tilining xarakterli ko'rinishidir” [Boboxo'jayev, 1977: 104]. Uning o'ziga xos xususiyatlardan biri ma'lumotlar ixchamlashtirilgan holda taqdim qilinishidir. Shuningdek, “Badiiy asar tilining badiylik, obrazlilik, ta'sirchanlik ko'lamini janr xususiyatlariga ko'ra bir xil emas. Bu vositalar nisbatan poeziya tilida bo'rtibroq turadi” [Umurqulov, 1990: 11]. Bu esa o'quvchidan matn tafsilotlariga e'tibor qaratishni, sinchkovlik bilan o'qishni talab etadi. She'rning ma'nosi ko'pincha bilvosita, sirli va tushunarsizdek ko'rinsa-da, biroq undagi qonuniyatlarni ochish mazmunni talqin qilishga yordam beradi. Yozuvchi yoki shoir badiiy obraz yaratish jarayonida semantik maydon doirasida fikrini maksimal aniqlik bilan tavsiflay oladigan birlikni tanlashi lozim bo'ladi. Agar “uzual” ma'no, ya'ni ma'lum til vakillari tomonidan qo'llash uchun qabul qilingan so'zlar bunga imkon bermasa, muallif o'z niyatini amalga oshiruvchi okkazional nutqiy birliklarni yaratadi. “Okkazional” so'zi lotincha “occasionalis” so'zidan olingan bo'lib, “tasodifiy” degan ma'noni anglatadi. Ushbu termini birinchi marta rus tilshunosi N.I.Feldman qo'llagan [Фельдман, 1957: 57]. Okkazional so'zlar nutqiy

emotsional-ekspressivlikni ta'minlash maqsadida til me'yorlarining buzilishi natijasida yuzaga keladi. “Okkazionalizmning asosiy va doimiy belgisi – uning noodatiyligidir. Yangi soʻzni izlar ekan, ijodkor goʻyoki butun tilni bosib oʻtadi” [Горелкина, 1999: 21]. Sheʼriy matndagi okkazional birliklar shoir uslubini anglashga, uning soʻz tanlovidagi mahoratini tushunishga undaydi.

Rauf Parfi sheʼriyati oʻziga xos boʻlib, uning soʻz oʻyini tilshunos olimlar tadqiqoti uchun asosiy manba vazifasini bajarmoqda. Shoir ijodi tilshunoslikning badiiy matn tahlili, lingvopoetika nuqtayi nazaridan turli aspektlarda oʻrganib chiqilgan. Jumladan, M.Dedaxonovning “Modern sheʼriyatda maʼno koʻchishining lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida)” nomzodlik dissertatsiyasi, S.Muminov va X.Gopirova hammuallifligidagi “Rauf Parfi sheʼriyatining lingvopoetikasi”, R.Saidova hamda G.Murodovlar hammuallifligidagi “Badiiy matnda belgi munosabati” monografiyasi shular jumlasidandir. Shuningdek, shoir ijodiga xos metaforalar, sineztez metaforalar, oksyumaronlar oʻzbek tilining naqadar jozibadorligini aks ettiradi, oʻzbek tilshunosligini jahon tilshunosligi bilan muqoyasa qilishga imkon beradi. Xususan, shoir ijodidagi okkazional birliklar ham tadqiqot materiali uchun katta qiziqish uygʻotadi. Rauf Parfi tomonidan yaratilgan okkazional birliklar tarkibiga koʻra turlari quyidagicha tasniflanadi.

1. Tub soʻz shaklidagi okkazional birliklar.

1.1. Soʻz asosini qisqartirish orqali hosil qilingan okkazional birliklar.

Kechmakda eronlar, turonlar,

Sudralib, paypaslab, itarib.

Kechmakda boʻronlar, suronlar,

Eng goʻzal, eng bagʻal, eng gʻarib. (Rauf Parfi, “Adashgan ruh”)

Ushbu sheʼrda shoir kambagʻal soʻzini gʻarib soʻziga sinonim hamda undan oldingi goʻzal soʻziga uygʻunlik hosil qilish maqsadida soʻz oʻyini qiladi va bagʻal tarzda okkazional birlik hosil qiladi.

Kambagʻal. [a. qashshoq, yoʻqsil]. 1. Muhtojlikda yashovchi; qashshoq, faqir, bechora. 2. Yetarli boʻlmagan, kam, yetishmaydigan. 3. koʻchma. s.t. Mushkul yoki ayanchli ahvolga tushib qolgan kishi; shoʻrlik, boyaqish, bechora. [OʻTIL, II: 732]. Bu sheʼrda “*mushkul va ayanchli ahvolga tushib qolgan, oʻzini bu holatdan qutqara olmaydigan, bechora*” maʼnosini ifodalash uchun qoʻllangan.

Oʻqlar uchar, chinglar shamshirlar,

Atrofingda soqov bir devor.

Bogʻlab olsa seni zanjirlar.

Yoʻq boʻlsang-da, yoʻqlikda agar,

Bor boʻl, doʻstim, qaygʻurma zinhor. (Rauf Parfi, “Thakurga iqtibos”)

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ching‘illamoq aynan shang‘illamoq so‘ziga mos kelishi berilgan [O‘TIL, VI: 783].

Shang‘illamoq. 1. Baland ovoz bilan, baqirib gapirmoq. 2. Qattiq, yoqimsiz ovoz chiqarmoq [O‘TIL, VI: 586]. Bu yerda chinglar leksemasi “*qattiq, yoqimsiz ovoz chiqaradi*” degan ma’noni ifodalash uchun qo‘llagan. Shamshir so‘zi qilich, tig‘ ma’nosida bo‘lib inversiya hodisasi yuz berishi natijasida chinglar leksemasi qilichlar bir-biriga tegib chingillaydi, ya’ni ching-ching qiladi qo‘shma fe’lini qisqartirish orqali okkazonal birlik hosil qilingan.

1.2. Anagramma-ya’ni so‘zdagi tovushlarni teskari qo‘llash orqali hosil qilingan okkazonal birliklar.

POCHTA. TELEGRAF. TELEFON. KIRDIM.

*Zo‘rg‘a olib keldim oyoqlarimni,
Tanbal, erinchak bir vujudki bu, eh,
Oyog‘im ma’yuslikning oyog‘idir. (birinchi kuplet)*

*Goh shunday bo‘lurki miyamda g‘ashlik,
Burchakda oq, jiddiy tufdonlar faqat,
Tufuklarin sochib turar iljayib.*

Nofelet, Fargelet, Atchop. Ketaman. (oxirgi kuplet)

Shoirning “Pochta. Telegraf. Telefon. Kirdim” deb boshlanuvchi she’rining oxirgi misralariga e’tiror qaratsak, Nofelet, Fargelet, Atchop so‘zlari o‘quvchiga tushunarsizdek bo‘lishi mumkin. Lekin bu so‘zlarni aglash, ma’nosini chaqish unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Mumtoz adabiyotda raddi matla degan she’riy san’at bor. So‘z ustalaridan Alisher Navoiy, Ogahiyning mashhur g‘azallarida ushbu san’atdan foydalanishgan. Bu she’riy san’at g‘azalning birinchi bayt birinchi misrasining she’r oxiri – maqtada takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladi. Raddi matla tasvirdan kelib chiqadigan xulosani anglatadi [Hojiahmedov, 1998: 109]. Shoir aynan shu she’riy san’atni qo‘llaydi. Bu okkazonal birlikning ma’nosini ochishga kalit vazifasini misra oxiridagi kirdim-ketaman so‘zlari va har bir so‘z bosh harflarda yozilgani yordam beradi. Shoir **Nofelet, Fargelet, Atchop** okkazonal birliklarni qo‘llash orqali bu joyda tizim teskari ishlayotganiga ishora qiladi va uning ma’nosini okkazonal birliklarga yuklaydi.

2. Yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan okkazonal birliklar.

So‘z yasovchi affikslar asosga qo‘shilib, shaxs, narsa, joy, belgi, harakat-holat kabi ma’nolarni ifodalaydi. *-iston* affiksi ma’lum bir millat ma’nosini ifodalovchi so‘zga qo‘shilib, ana shu millat yashaydigan joyni, shu millatga qarashli hududni ifodalaydigan ot yasaydi. Joy ma’nosini ifodalovchi so‘zni hosil qiladi: O‘zbek+iston,

Tojik+iston kabi. Shu bilan birga, asosdan anglashilgan narsa ko‘p bo‘lgan joy ma’nosidagi ot ham yasaydi: gul+iston kabi [Sapayev, 2009: 49].

Men hech kim emasman – Amirman,

Jinnistonning sohibqironi.

Hukmimni tinglashur hangrashib.

Jinni. [a. jin, ruh] 1. Aqldan ozgan, ruhiy kasallikka yo‘liqqan; telba, savdoyi. 2. Xayoliga kelgan, ahmoqona ishlar, yarashmaydigam qiliqlar qiladigan kishi; ahmoq, nodon. 3. O‘zini yaqin olib, erkalatib gapirganda yoki hazil tariqasida “devona”, “tentak” ma’nolarida qo‘llanadi. (O‘TIL, II: 655). Yuqoridagi misolda *-iston* affiksi joy ma’nosidagi so‘zga emas, balki “ahmoq, nodon” ma’nosini ifodalovchi so‘zga qo‘shilgan. Ijodkor jinniston so‘zini – “*xayoliga kelgan ishlarni qiladigan ahmoqlar bosib ketgan yurt*” ma’nosida qo‘llagan. Natijada okkazonal birlik hosil bo‘lgan. Shuningdek, quyidagi leksik okkazonallar ham affiksatsiya usulida yasalgan: *kartabon, elbon, tufdon, kulinchim, sig‘inchim, uyg‘otlik, vahmzor, alamzor, mehrgon, umrdosh* kabi.

3. **Shakl yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan okkazonal birliklar.**

Keling, kapalak,

Qanot qoqarak.

Sizga bog‘, gulzor,

Ko‘m-ko‘k bedazor. (Rauf Parfi, “Bahorda”)

Shoirning 1956-yil “Bahorda” deb nomlangan she’rida “qoqmoq” fe’lining qoqarak tarzida uchrashi shoirning qofiya talabi bilan o‘zgartirgan varianti hisoblanadi. Kelasi zamoni ifodalash uchun qoqmoq fe’liga *+ar+ak* qo‘shimchalarini qo‘shib, “*biror a’zoni silkitmoq, qimirlatmoq*” ma’nosida foydalangan.

4. **Qo‘shma so‘z shaklidagi okkazonal birliklar.**

Lug‘atlarda mavjud qo‘shma so‘zlar til birliklari sanaladi, ularni izohli o‘zbek lug‘atlari qamrab olgan. Biroq badiiy adabiyotda – ijodkorlar ijod mahsulida amaldagi imlo va izohli lug‘atlarda uchramaydigan nutqiy qo‘shma so‘zlar ham kuzatiladi. Buni esa qo‘shma so‘zlar tarkibining taraqqiyoti bilan baholash mumkin. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, qo‘shma shakldagi yangicha nutqiy yasama ot va nutqiy yasama sifatlarning yasaliş qolipini ko‘pincha [ot+ot] tashkil etgan. Bunga misol qilib, shoir ijodiga xos *jigarxun, laqqacho‘g‘, jigarqon, asrdiyda, qonsinglim, majnunshior, o‘zbekmomo, o‘zota* qo‘shma okkazonal birliklarni keltirishimiz mumkin.

O‘zbekmomo avlodi,

O‘zota o‘g‘lonlari,

Rost bo‘ldi yurak dodi,

Qonlarga to'lg'onlari. (Rauf Parfi, “Qadimiy turkulardan”)

She'r 1981-yil yozilgan. She'rdagi O'zbekmomo shaxs oti o'zbek ayollarining o'tmishdagi umumlashma obrazi bo'lib, qo'shma so'z tarkibidagi momo so'zi “*hurmatli, ko'pni ko'rgan, e'zoz-e'tiborli ayol*” ma'no ifodasiga ega. Bu obrazni biz shoir Muhammad Yusuf she'riyatida ommalashganini kuzatamiz. Shoir Muhammad Yusufning “O'zbekmomo” she'ri mustaqillik yillarida yozilganligini inobatga olsak, shoir ustoz Rauf Parfi ijodidagi okkazional birlikdan ilhomlanganmikan degan xulosa keladi.

“Okkazional so'zlar bir muallif tomonidan faqat bir marta qo'llaniladi degan qarashlar ham mavjud bo'lib, bu qarashlar noto'g'ridir. Okkazoanl so'zlar bir ijodkor ijodida bir necha marta qo'llanilishi ham mumkin. Masalan, Rauf Parfining ijodida yuqorida keltirgan itdoshlar okkazional so'zi bir she'rda ikki marta qo'llangan bo'lsa, alamzor okkazional so'zi “Aleksandr Blok” va “Munajjim” she'rlarida uchraydi” [Abdurahmanova, 2021: 21]. Haqiqatdan ham, shoir o'zi kashf etgan yangi yasalmalarni bir necha o'rinlarda qo'llaganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, yuqorida tahlilga tortilgan *chinglar* okkazional birikmasi “Ozarbayjon” deb nomlangan she'rida ham uchraydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Rauf Parfi she'riyatida so'z shaklidagi, ya'ni leksik okkazional birliklarni ko'p uchratamiz. Ular tarkibiga ko'ra tub so'z shaklidagi okkazional birliklar, yasovchi affiks hamda shakl yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan okkazional birliklar, qo'shma so'z shaklidagi okkazional birliklar kabi turlarga bo'linadi. Shuningdek, shoir okkazional birliklarining asosiy qismi davr, siyosiy jarayon bilan bog'liq holda qo'llangan. Avvalo, shoir o'zi yashagan davr, muhit tasvirini yoritishda, bu davr kishilarini tasvirlashda okkazional birliklardan qurol sifatida foydalangan. Chunki okkazional birliklarni tushunish lug'at bilan bog'liq jarayon emas, uni anglash kishidan ma'lum bilim, fahmni talab qiladi. Shu bois shoir Rauf Parfi o'z qarashlarini ma'lum darajada okkazionalizm hodisasiga yashiradi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmanova M., Mamajonova D. Okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik vazifalari // International Conference on Social and Humanitarian Research. – Poland, 2021, 19 – 23 b.
2. Boboxo'jayev N. Badiiy niyat va lirik ifoda. – Toshkent: Fan. 1977
3. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. 1957



4. Горелкина А. В. *Словообразовательные окказионализмы в мемуарных прозаических произведениях М. Цветаевой и А. Белого*: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Москва, 1999
5. Hojiahmedov A. *She'riy san'atlar va mumtoz qofiya*. – Toshkent, 1998
6. Rauf Parfi. *Saylanma*. – Toshkent: Akademnashr, 2013
7. Sapayev Q. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: 2009
8. Тошалиева С. *Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши*: Филол. фанлари номз. ... дисс. –Тошкент, 1998.
9. Umurqulov B. *Poetik nutq leksikasi*. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fan, 1990
10. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. I – VI tom. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023
11. Asadov, M. T. (2021). Fransuz-o 'zbek tarjimachiligi istiqbollari. *O 'zbekiston: til va madaniyat*, 1(3), 125-134.
12. Khakimova M. The human factor in the formation of abstract vocabulary. // [Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities](#), 2021. № 11. - P. 124-126.
13. Komilova, G. R., & Xolmanova, Z. (2020). *Formation and development of axiolinguistics. International Journal on Integrated Education*, 3(9), 128–131. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i9.602>
14. Mukhammadiyeva, D. (2022). Principles of translating the proverbs and adages in “Baburname”. *Turkology*, (1).
15. Urazova Iqbol, Parvin Salihi. [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#). [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#)
16. Xolmanova, Z. T., Shamsiyeva M.B. 2022. “Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 2 (1): 6-13
17. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 488-497.
18. K M. [«Kutadqu bilig» metnindeki eş sesli kelimelerin bediî ehemmiyeti](#). Uluslararası Türk Dili kurultayı, 161
19. B Abdushukurov, L Sindorov The Phenomena Of Semantic Widening And Narrowing In “Hibatul-Hakayik” - THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE ..., 2020